

Sayohatchilar uchun xushxabar: Nukus - Oqto'ba - Nukus yo'nalishida yangi parvoz!

2021 14 July

“Uzbekistan Airways” AJ 2021-yil 29-iyulidan boshlab Nukus - Oqto'ba - Nukus yo'nalishida haftasiga bir marta payshanba kunlari muntazam qatnovni amalga oshiradi.

Nukus - Oqto'ba yo'nalishidagi aviachipta narxi 1 071 693 so'mdan, Nukus - Oqto'ba - Nukus yo'nalishi bo'yicha aviachipta narxi esa 1 853 472 so'mdan boshlanadi.

Aviachiptalarni aviakompaniyaning rasmiy saytidan, Uzbekistan Airways Sales filialidan yoki aviakompaniya agentlaridan xarid qilib olish mumkin.

Aloqa-markazi raqami: +998 78 140 02 00 (kecha-yu kunduz).

“Uzbekistan Airways” AJ Axborot xizmati.